

# ZAMONAVIY TA'LIM SHAROITIDA O'QUVCHILARNI KASB-HUNARGA YO'NALTIRISHNING MAZMUN-MOHİYATI

Alibekova Dilafro‘z Muratbayevna

Qoraqalpog‘iston Respublikasi Qanliko‘l tumani 5-sonli umumiy o‘rta ta’lim maktabi amaliyotchi psixologи

**ANNOTATSIYA:** Mazkur maqola maktab o‘quvchilarning kasbiy rivojlanishiga ta’sir etuvchi psixologik xususiyatlari tahlil qiladi. Hamda zamonaviy ta’lim sharoitida o‘quvchilarning maktab davridayoq egallashlari lozim bo‘lgan kasbiy muhim fazilatlari va ularning rivojlanishi uchun psixologik-pedagogik qo‘llab-quvvatlash borasidagi fikr-mulohazalarga e’tibor qaratadi.

**Kalit so‘z va iboralar:** O‘quvchi, kasb, hunar, kasbga yo‘naltirish, kasbiy yo‘nalish, mehnat ta’limi.

## АННОТАЦИЯ:

В данной статье анализируются психологические особенности, влияющие на профессиональное развитие школьников. Также в условиях современного образования он обращает внимание на мнения о важных профессиональных качествах, которые учащиеся должны приобрести в школьный период, и психолого-педагогическом сопровождении их развития.

**Ключевые слова и фразы:** Ученик, профессия, ремесло, профориентация, профессиональная ориентация, трудовое воспитание.

## ABSTRACT:

This article analyzes the psychological characteristics that affect the professional development of schoolchildren. Also, in the conditions of modern education, he pays attention to the opinions on the important professional qualities that students should

acquire during the school period and psychological-pedagogical support for their development.

**Key words and phrases:** Pupil, profession, craft, career orientation, professional orientation, labor education.

Zamonaviy jamiyatda ilmiy-texnik taraqqiyotning jadal rivojlanishi, mehnat bozoridagi raqobat va ish beruvchilarning zamonaviy talablari ortib borayotganligi sababli yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlash muammosi dolzarbdir. Xalq ta’limi oldiga eng yangi texnologiyalarni joriy etish orqali jamiyatimizning ilmiy-texnikaviy, iqtisodiy va intellektual asoslarini tubdan o‘zgartirishga qodir mutaxassislarni maktab paytidagi ta’lim jarayonlaridanoq kasb-hunarga yo‘naltirish yoki muayyan kasbga layoqatini oshirish vazifasi turibdi.

O‘quvchilarning o‘quv va kasbiy faoliyatini takomillashtirish muammosi bugungi kunda Xalq ta’limining ham muhim masalalaridan biri sifatida e’tirof etilishi noo‘rin emasdir. Chunki zamonaviy ta’lim sharoitida o‘quvchilarni kasb-hunarga yo‘naltirishning psixologik xususiyatlari bilan bog‘liq muammolarni yoki pedagogik jihatlarini eng avvalo, maktab vaqtida aniqlash va ularga maqbul yechimni joriy etish lozim. Aynan shu maqsadda ko‘pgina olimlarning ishlarida ham bu mavzuga alohida e’tibor qaratilgandir.

Rus psixologlari G.V. Akopova, B.G. Ananyeva, V.V. Balashova, M.R. Ginzburg, A.L. Juravleva, E.F. Zeera, I.A. Zimney, E.A. Klimova, D.A. Leontiev, A.V. Petrovskiy, N.S. Pryajnikova, E.Yu. Pryajnikova, S.N. Chistyakova singari ilm fidoyilari o‘quvchi-yoshlarning kasbiy shakllanishi va rivojlanishi muammosini o‘z ilmiy ishlarida keng hajmda yoritib bergenlar.

Bundan tashqari yana ko‘pgina jahon olimlarining asarlarida o‘quvchilarning shaxsiy va kasbiy rivojlanishining asosiy yo‘nalishlari ajratib ko‘rsatilgan:

-kasbiy yo‘nalish va tegishli qobiliyatlarni rivojlantirish;

-kasbiy faoliyatga psixologik tayyorlikni, kasbiy muhim fazilatlarni, kasbiy kompetentsiyalarni va boshqalarni shakllantirish.

Yangi ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarda, birinchi navbatda, yosh avlodning ehtiyoj va manfaatlariga ta’sir ko‘rsatadigan sharoitda, kasbiy tayyorgarlikda o‘z-o‘zini rivojlantirish, o‘z-o‘zini takomillashtirish imkoniyatlari birinchi o‘ringa chiqadi. O‘quvchilarning psixologik xususiyatlarini, ularning ta’lim va kasbiy faoliyatga bo‘lgan munosabatini zamonaviy tahlil qilish va o‘z-o‘zini tarbiyalash mexanizmlarini kasbiylashtirish jarayoniga kiritishga yondashuvlarni belgilash talab etiladi.

Bugungi kunda umumta’lim maktablarining eng zarur hayotiy vazifalaridan biri o‘quvchi-yoshlarni kasb tanlashga to‘g‘ri yo‘naltira olishdir. Bu sohadagi amaliy harakatlarni tartibga solish va mavjud holatidan yuksaltirish maqsadida 30.12.2021-yilda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 792-son qarori qabul qilindi. Ushbu qarordan maqsad O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Ishchi kasblar bo‘yicha kadrlarni tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2021-yil 8-iyundagi PQ-5140-son qarori ijrosini ta’minlash hamda umumiyl o‘rta ta’lim muassasalarining 10-11-sinflari o‘quvchilarini kasb-hunarga o‘qitish, o‘quvchilarning qiziqish va qobiliyatlaridan kelib chiqib kelajakda ularning ta’limni davom ettirishlari yoki egallagan kasblari bo‘yicha mehnat faoliyati bilan shug‘ullanishlariga shart-sharoitlar yaratishdir.

Respublikaning soha mutasaddilari tomonidan shrt-sharoit yartib berilishi bilan bir qatorda ota-onalar va mifik ma’muriyatining hamkorlik bilan ish olib borishi juda muhim hisoblanadi. Mustaqillik natijasida mazkur masalaga jiddiy e’tibor qaratildi va ta’lim sohasi rivoji uchun yetuk mutaxassislar, olimlar jalb qilindi. Ular tomonidan ilmiy-amaliy qo’llanmalar, darsliklar, metodik tavsiyanomalar yozilib, o‘quvchi-yoshlarni kasbga yo’llash ishlari bo‘yicha amaliy harakatlar boshlab yuborildi.

Mifik o‘quvchilarini kasbga yo‘naltirish ishlariiga ilmiy jihatdan qaraganda, dastlabki bosqich sifatida muhit va jamiyat bilan hamkorlikda uzoq vaqt mobaynida

davomiyligini saqlaydigan murakkab psixologik jarayon ekanligini guvohi bo‘lish mumkin. Boshqacharoq aytganda, nafaqat umumiy va maxsus qobiliyatlar, shaxsiy xususiyatlar, balki, shu jumladan, shaxsga moddiy va ma’naviy, ijtimoiy va iqtisodiy jihatdan ta’sir etuvchi tashqi muhit ham kasb tanlashga o‘z ta’sirini o’tkazadi. Bu jarayonlarda har bir o‘smirda bo‘lajak kasbga ongli va to‘g‘ri tanlashga imkon beradigan kasbiy ta’limning muvaffaqiyatini ta’minlaydigan, qulay imkoniyatlarni yuzaga keltiradigan shaxs rivojlanishining muayyan bosqichi yoxud holati tushuniladi. Bu esa kasb-hunarga yo‘naltirish faoliyatining maqsadi asosan o‘quvchi-yoshlarning bo‘lajak kasbini ongli va mustaqil ravishda to‘g‘ri tanlashlariga qaratilgan bo‘lishi zarur, degan fikrning asosli ekanligiga ishora qiladi.

Xulosa sifatida shuni aytish joizki, respublika bo‘ylab amalga oshirilayotgan bunyodkorlik ishlarining zamirida davlatni yetakchi demokratik davlatlar ko‘rsatkichiga chiqarish bosh maqsadi yotibdi... Shu boisdan ham o‘quvchilarda o‘zlarining qiziqishlari asosida kasb tanlashga yo‘llash bugunning, xususa, Xalq ta’limi sohasi va soha vakillarining dolzarb vazifalaridandir. Mehnat ta’limi bilan bog‘liq dars jarayonlari va tabiiy fanlarni o‘qitishda o‘quvchilarini kasbga yo‘llash imkoniyatlari ma’lum ma’noda chegaralanganligi sababli ularni qo’shimcha dars mashg’ulotlari yoki to‘garaklar faoliyatida amalga oshirish mumkin. Bunday jarayonlarda o‘quvchilarini bajaradigan faoliyatidan kelib chiqib, kasblarga yo‘naltirish imkoniyatlari yanada ortadi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Назарова, М. М. К. (2022). Профилактика девиаций в подростковый период. *Science and Education*, 3(2), 1306-1312.
2. Nazarova,M. (2021). Boshlang‘ich ta’lim o‘quvchilarining psixik taraqqiyotida integratsiyaviy-innovatsion yondashuvlar ahamiyati.

3. Nazarova, M. (2021). Globallashuv jarayonida milliy til omili. ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz), 7(7).
4. Гайбуллаев, А. А. Психология: происхождение и структура научного факта. Вестник интегративной психологии, 19(19), 115-119.
5. Рустамов, Ш. Ш. (2021). Амалиётчи психологлар касбий компетенлигини ривожланишида математик усуллардан фойдаланишнинг амалий жиҳатдан ўрганилиши.